

## **JAVLON UMARBEKOV IJODIDA INSON TAFAKKURI VA FALSAFIY IFODA: “HOMO SAPIENS” VA “MEN INSONMAN” ASARLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR**



**Sabina Qayimova**  
Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i  
Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-13>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston san’atining yorqin namoyandalaridan biri, O‘zbekiston badiiy akademiyasi akademigi, taniqli olim Javlon Umarbekovning bir qator asarlarini tahlili haqida qisqacha ma’lumot berilgan bo‘lib, ushbu asarlaridan “Homo Sapiens” hamda “Men insonman” asarlarining falsafiy va ijodiy tahlili bayon etiladi. Akademik J.Umarbekov tomonidan yaratilgan ushbu ikki asar inson tafakkuri va uning falsafiy dunyoqarashi naqadar chuqur ma’no kasb etishi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Javlon Umarbekov, tasviriy san’at, rassom, postmodernism, “Homo Sapiens”, “Men insonman”, “Zilzila”, “Ona va bola”, “Yetti iqlim sultonii”.

**Аннотация:** В данной статье представлена краткая информация об анализе ряда произведений одного из ярких представителей узбекского искусства, академика Академии художеств Узбекистана, известного ученого Жавлона Умарбекова. В частности, раскрывается философский и творческий анализ таких его работ, как «Homo Sapiens» и «Я — человек». В этих произведениях, созданных академиком Ж. Умарбековым, отражается глубина человеческого мышления и философского мировоззрения.

**Ключевые слова:** Жавлон Умарбеков, изобразительное искусство, художник, постмодернизм, «Homo Sapiens», «Я — человек», «Землетрясение», «Мать и дитя», «Повелитель семи климатов».

**Abstract:** This article provides a brief overview of the analysis of several works by Javlon Umarbekov, one of the prominent representatives of Uzbek art, an academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, and a renowned scholar. It presents the philosophical and creative interpretation of his works “Homo Sapiens” and “I Am Human.” These two pieces, created by Academician J. Umarbekov, highlight the profound meaning of human thought and philosophical worldview.

**Keywords:** Javlon Umarbekov, visual art, artist, postmodernism, Homo Sapiens, I Am Human, Earthquake, Mother and Child, Sultan of Seven Climates.

**Kirish.** Javlon Umarbekov – O‘zbekiston san’atining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, Osiyo va Yevropa san’at an’analari uyg'unlashtirgan ijodkordir. U o‘z asarlarida milliy ruhni, zamonaviy badiiy ifodani va inson hissiyotlarini o‘ziga xos uslubda aks ettirgan. Rassomning ijodi nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan. Ushbu maqolada uning hayoti, ijodiy yo‘li va san’atiga oid ilmiy tahlillar beriladi.

Taniqli rassom Javlon Umarbekov 1946-yil Toshkent shahrida tavallud topgan. U bolalikdan san’atga mehr qo'yib, tasviriy san’at bilan shug'ullana boshlagan. 1970-yillarda Toshkent Davlat san’at institutini tamomlab, o‘z ijodiy faoliyatini boshlagan. U san’atning turli janrlarida ishlagan bo‘lib, asosan rangtasvir sohasida katta yutuqlarga erishgan.

Uning ijodiy shakllanishida 1980-yillar alohida o‘rin tutadi. Aynan shu yillarda u “Homo Sapiens”, “Men – insonman” kabi monumental asarlarini yaratdi. Bu asarlar inson tafakkurining

chuqur qatlamlarini yoritib bergan bo‘lib, san’atshunoslar tomonidan yuqori baholangan. 1990-yillarga kelib, Umarbekovning ijodida sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. U oldingi falsafiy chuqurlikka asoslangan ishlardan ko‘ra, hayotning turfa manzaralarini aks ettiruvchi asarlar yaratishga intilgan.

Javlon Umarbekovning ijodi o‘zbek tasviriy san’atining rivojlanishida muhim bosqichlardan birini tashkil etadi. Uning asarlari ijtimoiy, falsafiy va estetik jihatdan chuqur ma’no kasb etadi. Uning ijodida quyidagi asosiy xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Birinchidan, modern va milliy uyg‘unlik – Umarbekov asarlarida o‘zbek an’analari bilan modern san’at uslublari sintez qilingan.

Ikkinchidan ranglar dinamikasi – Rassomning kartinalarida yorqin va chuqur ranglar uyg‘unligi mavjud.

Uchinchidan timsol va ramzlar – San’atkor o‘z asarlarida ramzlardan keng foydalanadi, bu esa tomoshabinlarga asarlarning chuqur ma’nosini anglash imkonini beradi.

Javlon Umarbekovning asarlari tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, olim ijodiy yo‘nalishini tushunish uchun uning ayrim muhim asarlarini tahlil qilib chiqamiz.

Olimning “Homo Sapiens” (1979–1980), “Men – insonman” (1980-yillar), “Zilzila” (1992), “Ona va Bola” (1995), “Etti Iqlim Sultoni” (1995) va shunga monand bir qator asrlarga tatigulik ijod mahsuli bor bo‘lib, ushbu asarlar orqali insonni naqdor go‘zal ichki tabiatli ekanligini isboti ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Olimning mustaqillik yillarda yaratilgan asarlaridan “Zilzila” asari hayotning sinovlari va insonning ichki kurashlarini yoritib beradi. Uning ijro uslubi va chuqur ma’nosi Picasso ijodiga yaqin deb hisoblanadi.

“Ona va Bola” personaji esa Ona va bola o‘rtasidagi mehr-oqibat, oilaviy qadriyatlar tasvirlangan. Asar nozik va samimiy ohangda yozilgan.

“Etti Iqlim Sultoni” asari esa Amir Temurga bag‘ishlangan ushbu asarda tarix va milliy g‘urur yuksak badiiy darajada tasvirlangan.

Rassomning ijodida tushunchalar chuqurligi va ichki falsafiy qatlamlar muhim o‘rin egallaydi. Uning san’at falsafasi quyidagi omillarga asoslanadi:

A) O‘zbek madaniyatiga hurmat – Rassom o‘zbek madaniy merosini yuksaltirishga intilgan.

B) Postmodernistik yondashuv – 1990-yillarga kelib, Umarbekov klassik uslublardan chiqib, san’atda postmodernizm elementlaridan foydalanishga o‘tgan.

C) Falsafiy va ramziy ifoda – Uning asarlarida shunchaki vizual tasvir emas, balki chuqur falsafiy ma’nolar mavjud.

Biz maqolada bat afsil tasvirlamoqchi bo‘lgan asarlar esa “Homo Sapiens” hamda “Men – insonman” kartinalaridir.

Javlon Umarbekovning “Homo Sapiens” va “Men – insonman” asarlari postmodernistik san’at tamoyillariga asoslangan holda yaratilgan. Postmodernizm – bu an’anaviy qarashlarni inkor qiluvchi, murakkab falsafiy tushunchalarni ijodiy tasvirlash orqali anglatishga intiluvchi san’at yo‘nalishidir. Rassomning ushbu asarlarida postmodernistik yondashuv quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

“Homo Sapiens” va “Men – insonman” asarlarida dekonstruktsiya va ko‘p ma’nolilik aniq va ravshan ko‘zga tashlanadigan bo‘lib, inson qiyofasi va tafakkuri odatiy shaklda emas, balki parchalangan, abstrakt elementlar orqali tasvirlangan. Bu tafakkurning murakkabligini, turli talqinlarga ochiqligini ifodalaydi.

“Men – insonman” asarida tarix va zamonaviylik sintezi aniq ifodalar orqali insoniyatning tarixiy va zamonaviy qadriyatları uyg‘un tasvirlangan. Postmodernizmda tez-tez uchraydigan retrospektiv yondashuv rassomning ishida ham o‘z aksini topgan.

Simvolizm va falsafiy ramzlar asosida Javlon Umarbekov inson tafakkurini ifodalashda aniq shakllardan ko‘ra, ramzlar va mavhum obrazlardan foydalanadi. “Homo Sapiens” asaridagi ranglar va chiziqlar tafakkurning cheksizligini anglatadi.

Subyektiv yondashuv tufayli har ikkala asar ham tomoshabinni fikrlashga undaydi, aniq xulosa chiqarish o‘rniga, o‘z tushunchalarini shakllantirish imkoniyatini beradi. Bu postmodern san’atga xos xususiyatlardan biridir.

Javlon Umarbekovning ushbu yondashuvi uning san’atini nafaqat milliy, balki global san’at oqimlari bilan uyg‘unlashtiradi. Postmodernistik elementlar orqali rassom inson ongi va ma’naviyatining murakkabligini badiiy talqin qilishga erishgan.

Javlon Umarbekovning “Homo Sapiens” va “Men – insonman” asarlari inson tafakkuri, uning rivojlanishi va ma’naviy kechinmalariga bag‘ishlangan. U o‘z ijodida ranglar, shakllar va falsafiy ramzlar orqali insoniyat tarixining chuqur tahlilini taqdim etadi. Bu asarlar nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro san’at olamida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu asarlar o‘zbek san’atining postmodernistik taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, insonning falsafiy izlanishlari va tafakkurining murakkab jihatlarini badiiy shaklda ifoda etadi. “Homo Sapiens” inson ongi va tafakkurining dinamik rivojlanishini, “Men – insonman” esa inson o‘zligini anglash jarayonlarini chuqur tahlil qiladi.

Rassomning ijodi faqat badiiy estetikaga emas, balki insoniylik, madaniyat va tarixiy o‘zlikni anglashga qaratilgan bo‘lib, bu uning san’atini global darajaga olib chiqadi. Uning ijodi postmodern san’atning falsafiy tamoyillariga tayanib, an’anaviy va zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda yangi ma’no qatlamlarini yaratishga xizmat qiladi.

Javlon Umarbekovning ijodi san’at ixlosmandlari va san’atshunoslar uchun hamisha dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda. Uning asarlari zamonaviy san’at kontekstida ham muhim ahamiyat kasb etadi va o‘zbek madaniy merosining ajralmas qismi sifatida kelajak avlodlarga ilhom baxsh etishda davom etadi. Javlon Umarbekovning “Homo Sapiens” va “Men – insonman” asarlari inson tafakkuri, uning rivojlanishi va ma’naviy kechinmalariga bag‘ishlangan. U o‘z ijodida ranglar, shakllar va falsafiy ramzlar orqali insoniyat tarixining chuqur tahlilini taqdim etadi. Bu asarlar nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro san’at olamida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Javlon Umarbekov O‘zbekiston san’ati rivojiga katta hissa qo‘shegan, o‘ziga xos uslub va texnika orqali milliy san’atni jahon darajasiga olib chiqqan rassomdir. Uning asarlari ham badiiy, ham falsafiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, yosh ijodkorlar uchun ilhom manbai hisoblanadi. Uning ijodi O‘zbekiston madaniy merosining ajralmas qismidir. J.Umarbekovning ijodi nafaqat tasviriy san’at, balki milliy tafakkur, tarix va madaniyat nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Uning asarlari san’atshunoslar tomonidan chuqur o‘rganilib kelinmoqda va bu ijod hali uzoq yillar davomida san’at ixlosmandlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:**

- 1.Javlon Umarbekov katalog (O‘zbekiston)
- 2.Долина откровенный каталог Джавлон Умарбеков 2006 г
- 3.Grafika katalog.Javlon Umarbekov ( Tashkent Lesson Press 2021)